


JANUBIY-SHARQIY OSIYODAGI XITOIY DIASPORASI

 10.24412/2181-1784-2021-1-520-524

Kazakbayev.H.I.

TDSHU Xitoy tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti
kafedrasi o'qituvchisi

Abstract: *This article is primarily devoted to Chinese diaspora in the countries of Southeast Asia. The article analyzes the role of the Chinese diaspora in Southeast Asia in the socio-economic life of the PRC and Southeast Asia.*

Keywords: *Southeast Asia, Overseas Chinese, Diaspora, Huaqiao, Maritime Silk Road, Singapore.*


Annotatsiya: *Ushbu maqola Janubiy-Sharqiy Osiyoda mamlakatlaridagi Xitoy diasporasiga bag'ishlangan. Maqolada Janubiy-Sharqiy Osiyodagi Xitoy diasporasining XXR va Janubiy-Sharqiy Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi roli tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Janubiy-Sharqiy Osiyo, Xitoy Diasporasi, Hua Chyo, Dengiz Ipak Yo'li, Singapur.*

So'ngi yillarda mutaxassislar tomonidan jahondagi migratsiya jarayonlarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada Xitoy Xalq Respublikasining o'rni va roli ham juda muhim hisoblanadi. Xitoy rasmiylarining ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda xorijiy davlatlarga emigratsiya qilgan xitoyliklarning umumiy soni 50 mln kishini tashkil etadi [1].

Xitoydan tashqarida yashovchi etnik xitoyliklarga nisbatan “Hua Chyao” (华侨 – Huáqiáo) atamasi keng qo'llaniladi. “Zamonaviy Xitoy tili lug'ati” (现代汉语词典 - xiàndài hànyǔ cídiǎn)da bu atama “xitoylik emigrant” (华 huá – Xitoy, 侨 qiáo – emigrant, muhojir) degan ma'noni bildiradi [2].

Hozirgi kunda xitoyliklar ko'chib borgan eng yirik mintaqa bu Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari hisoblanadi. Xususan bu mintaqada Xitoydan ko'chib ketganlarning 75 % ni tashkil etadi. Bu esa xitoyliklar mintaqa davlatlari axolisining 6 % ni tashkil etishini bildiradi. Bundan tashqari mintaqa davlatlarining ayrimlarida etnik xitoyliklar ko'pchilikni tashkil etadi (1.diagramma) [3].



Janubiy -Sharqiy Osiyo davlatlarida *xitoyliklarning* ortishi o'z navbatida ushbu davlatlarning iqtisodiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan Singapur YAIMida *xitoyliklarning* ulushi 90%, Indoneziyada esa bu ko'rsatkich 70 % ni tashkil etadi. (1.Jadval) [3].

1.Jadval. Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarida xitoyliklarning axoli soni va YAIMidagi ulushi %

Davlat	Xitoyliklarning axoli sonidagi ulushi %	YAIMdagi ulushi %
Singapur	75	90
Indoneziya	4	70
Filippin	3	70
Tailand	3	60
Malayziya	30	50

Yuqoridagi holatlardan tashqari Janubiy - Sharqiy Osiyo davlatlarida iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari butunlay Xitoy diasporasi tomonidan nazorat qilinadi. Xitoyliklar faoliyat yuritadigan soha asosan bu xizmat ko'rsatish (mehmonxona biznesi, moliya, bank tizimi), metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika, qurilish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Xitoy diasporasining Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi umumiy kapitali 2,5 trln AQSH dollarini tashkil etadi [5].

XX asr ikkinchi yarmigacha xitoyliklarning mamlakatdan chiqib ketishi ijobiy hodisa sifatida qaralmagan. Chunki Konfutsiylik ta'limotiga ko'ra inson ajdodlari

yotgan zaminni tark etmasligi lozim. Shu sabablar Xitoy diasporasi XXR bilan uzviy bog'langan.

1970 yillar oxirida Xitoy yuqori doiralari jumladan Den Syaopin “Hua Chyao”lar aloqa o'rnatilashi Xitoy iqtisodiyotiga ijobiy ko'rsatishini ta'kidlab o'tgach mamlakatda bu masalaga jiddiy e'tibor qarata boshlashdi. 1978 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan XXR Kommunistik partiyasining 3 plenum IX se'zdida Xitoy diasporasi “Xitoy jamiyatining ajralmas qismi” deb e'lon qilindi[4].

So'nggi 20 yilda xitoylik emigrantlarning soni yiliga o'rtacha 200 ming kishini tashkil etadi. Asosiy emigratsiya yo'nalishi Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bo'lib qolmoqda. Bu esa o'z navbatida mintaqa davlatlarining iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida xitoyliklarning o'rni sezilarli darajada ekanligini bildiradi.

Yuqoridagi holat o'z navbatida XXR hukumati tomonidan xorijdagi “xitoyliklar” bilan aloqalarni muvofiqlashtirish uchun XXR Davlat Kengashi tomonidan 7 ta tashkilot tashkil etilgan [5].

Butun Xitoy Xalq Vakillari Majlisi qoshidagi “Hua Chyao” ishlari bo'yicha Kanselyariyasi

Xitoy xalq siyosiy konsultativ kengashining Syangan, Aomen, Tayvan va “Hua Chyao” bilan aloqalar bo'yicha qo'mitasi

XXR Davlat Kengashining “Hua Chyao” ishlari bo'yicha Kanselyariyasi

“Adolat uchun harakat” partiyasi (“Hua Chyao” tomonidan tashkil qilingan)

Butun Xitoy reemigrantlar assotsatsiyasi

Xitoy xalqaro aloqalar assotsatsiyasi

Syangan, Aomen, Tayvan masalalari bo'yicha department.

Ushbu tashkilotlar Xitoy va “Hua Chyao” o'rtasidagi munosabatlarda ko'prik vazifasini o'tab bermoqda. 1980 yillarda boshlab xorijdagi xitoyliklar Xitoyga investitsiya kiritishni boshlashdi. Bu jarayon ikki bosqichda amalga oshirildi [5].

Birinchi bosqich. Ushbu bosqichda Gonkong, Makao va Tayvanda yashovchi xitoyliklar tomonidan “Hua Chyao” larning tarixiy vatani Chjeszyan, Fuszyan va Guandun provinsiyalariga kiritildi. Investitsiyalar ushbu hududlarni rivojlanishiga olib keldi.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda transmilliy korporatsiyalar ishtirok etdi. Xitoy hukumati investitsiya jalb qilish uchun qonunchilikni ham qayta ko'rib chiqib investorlar uchun qulay sharoit yaratdi. [5].

Zamonaviy davrda ham Xitoy hukumati “Hua Chyao”lardan o'z tashqi siyosiy manfaatlari yo'lida foydalanishda davom ettirmoqda. Jumladan, Si Szinpin tomonidan ilgari surilayotgan “Dengiz Ipak yo'li” loyihasini amalga oshirishda

Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridagi xitoyliklarning o'zni beqiyos. Chunki loyihaning asosiy yo'nalishlari xitoyliklar yashovchi hududlardan o'tadi [6].

Yuqoridagi holatlar asosida Janubiy-Sharqiy Osiyodagi “Hua Chyao”lar haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, Xitoy diasporasi birinchi navbatda XXR bilan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishni afzal ko'radi. Jumladan, Xitoyning ASEAN davlatlariga investitsiyasi xitoyliklar nazorat qiladigan Singapur banklari tomonidan amalga oshiriladi. Singapur banklari “Hua Chyao”larning moliyaviy operatsiyalar o'tkazishda yordam beradi. Shuningdek, banklar xitoyliklarga investitsiya kiritilayotgan davlatning soliq tizimi va iqtisodiy risklar bo'yicha maslahatlar beradi [7]. Bu esa Janubiy-Sharqiy Osiyoda xitoyliklar biznesini rivojlanishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, Janubiy-Sharqiy Osiyodagi xitoyliklar sotsial integratsiyaga kirishishadi. Yani o'z familiya va ismlarini mahalliy axolining ismi va familiasiga o'xshash qilib o'zgartirishadi, mahalliy madaniyat va dini qabul qiladi. Bu esa mahalliy axoli bilan yaqinlashishiga olib keldi.

Uchinchidan, “Hua Chyao”lar mahalliy axoli bilan sotsial integratsiyaga kirishishsa ham xitoy tili “ish tili” sifatida saqlab qolish va shu bilan birga “Chinatown” nomini olgan xitoy kvartallarini tashkil etishni asosiy maqsad sifatida ko'rishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Впервые получены сравнительно точные цифровые данные о количестве проживающих за рубежом китайцев и китайских эмигрантов // <http://russian.people.com.cn/31516/7663300.html>

2. 现代汉语词典 (xiàndài hànyǔ cídiǎn) Pekin, 2018. T.7. – B.560

3. Китайские диаспоры и «новая» Китайская миграция в странах Юго-Восточной Азии // <https://articlekz.com/article/9370>

4. Китайская диаспора и Китай: общественные и экономические отношения для взаимного политического блага // <https://cyberleninka.ru/article/n/kitayskaya-diaspora-i-kitay-obschestvennyye-i-ekonomicheskie-otnosheniya-dlya-vzaimnogo-politicheskogo-bлага/viewer>

5. Роль хуацяо в развитии китайской экономики // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54126/1/vestnik_2008_2_006.pdf

6. Хуацяо-секретное оружие Китая // <https://svpressa.ru/economy/article/297776/>

7. Роль китайской общины Юго-Восточной Азии // <http://csef.ru/ru/politica-i-geopolitica/416/rol-kitajskoj-obshhiny-yugo-vostochnoj-azii-7194>